

**TURKISTON VETERINARIYA XIZMATI. XIZMAT SAFARLARI VA
KUNDALIK FAOLIYATI
(XX ASR BOSHLARI)**

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna,

University of Business and science oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi
b.shaxsanam@gmail.com

***Annotatsiya.** Turkiston viloyatlarida veterinariya boshqarmalari mavjud bo'lib, bular uyezd va volostlarda veterinariya holatni o'rganish uchun o'z veterinar shifokorlarini vaqti-vaqti bilan hududlarga xizmat safariga yuborib turgan. Veterinar shifokorlarga hududlarning veterinariya holati bo'yicha xarita berilgan va ular bu orqali hududlarda o'z faoliyatini olib borgan.*

***Kalit so'zlar:** Turkiston, Farg'ona shahri, Toshkent shahri, veterinariya siyosati, veterinar shifokorlar, veterinar shifokorlarning xizmat safarlari, chorva mollari kasalliklari, qushxonalar, tadbirkorlar, mahalliy xalq.*

***Аннотация.** В Туркестане в каждой губернии существовали ветеринарные отделы, эти отделы периодически направляли своих ветеринаров в командировки для изучения ветеринарного положения в уездах и волостях. Ветеринарам была предоставлена карта ветеринарной ситуации в данном районе, и на основе этой карты они вели свою деятельность на территориях.*

***Ключевые слова:** Туркестан, город Фергана, город Ташкент, ветеринарная политика, ветеринарные врачи, командировки ветеринарных врачей, болезни скота, предприниматели, местное население.*

***Abstract.** In Turkestan, there were veterinary departments in each province, these departments periodically sent their veterinarians on business trips to study the veterinary situation in uyezds and volosts. Veterinarians were given a map of the veterinary situation in that area, and they conducted their activities in the areas based on this map.*

***Key words:** Turkestan, city of Fergana, city of Tashkent, veterinary politics, veterinary doctors, commanding veterinary doctors, livestock diseases, predprinimateli, local population.*

Kirish. Turkistonning har bir viloyatida veterinariya boshqarmalari mavjud bo'lib, ushbu boshqarmalar uyezd va volostlardagi veterinariya holatni o'rganish uchun o'z veterinar shifokorlarini vaqti-vaqti bilan hududlarga xizmat safariga yuborib turgan. Veterinar shifokorlarga hududlarda veterinariya holati bo'yicha maxsus xarita berilgan va ular ushbu xarita orqali o'z faoliyatini olib borgan. Masalan, 1909-yil 10-iyunda Farg'ona viloyat veterinariya boshqarmasi o'zining veterinar shifokori Sutulovni uezd va volostlarni o'rganish uchun xizmat safariga yuborgan. Unga 6 varoqdan iborat xizmat safari rejasi berilgan. Ushbu hujjatda, xizmat safarining vaqtlari va veterinar tadqiqot olib borish hududlari ko'rsatilgan. Veterinar shifokor ushbu hujjat asosida xizmat faoliyatini olib borish mumkin bo'lgan. Shuningdek, shifokorlar xizmat safari so'ngida ushbu hujjatlarni viloyat veterinariya xizmatiga topshirishi lozim edi. Agar veterinar shifokor ushbu hujjatni yo'qotsa va uni qaytara olmasa davlatga 3 so'm 46 tiyin miqdorida jarima to'lashi kerak bo'lgan [1. 3-varaq].

Sutulov veterinar shifokor sifatida Andijon uyezdiga xizmat safariga yuboriladi. Dastavval u qoida bo'yicha uyezd boshlig'i yoniga borishi va o'zini tanishtirishi lozim bo'lgan. Shundan so'ng, uyezd boshlig'iga o'zining rejalarini qisqacha tushuntirib bergan. Shuningdek, u Andijon uyezdida chorvachilikka oid yig'ilishda qatnashadi va unda veterinariya sohasi bo'yicha ma'ruza qiladi. U uyezdning O'zgan, Assen va Jalolobod volostlariga tashrif buyuradi. Shifokor bir yil moboynda mazkur hududlarda veterinariya-sanitariya va chorvachilik munosabatlarini o'rgangan [1. 3-varaq].

Aytib o'tish lozimki, xizmat safariga yuborilgan shifokorlarga yo'riqnoma berilgan va ular ushbu hujjat asosida faoliyat olib borgan. Agar veterinar shifokorga biriktirilgan hududlarda chorva mollarida yuqumli kasalliklar aniqlansa ularga qarshi kasallikning xususiyatiga qarab izolyatsiyalash (ajratish) choralari qo'llanilgan va kurash olib borilgan. Ayniqsa, qoramol vabosiga qarshi kurashish eng asosiy maqsad hisoblangan. Hatto Turkiston general-gubernatori bo'yicha maxsus farmon chiqargan, hamda veterinar shifokorlar ushbu farmonning nusxasini har doim o'zlari bilan olib yurgan. Agarda qoramol vabosi kasalligi tarqalsa, veterinar shifokorlar ushbu hujjatda ko'rsatilgan ko'rsatmalar orqali harakat qilgan. Shuningdek, mazkur davrda barcha hududlarda chorva mollari bir xil turdagi kasalliklar uchragan va u qoramol vabosiga nisbatan yengil hisoblangan. Mazkur kasalliklarga qarshi veterinar shifokorlar 1905-yilda qabul qilingan tibbiyot politsiyasi ustavida belgilangan choralar ko'rgan [1. 4-varaq].

Muhokama va natijalar. Arxiv manbalariga ko'ra, hududlarga xizmat safariga yuborilgan shifokorlar har bir aholi punkitini tekshirib, u yerdagi hayvonlar soni va ularning sanitariya holati hisobotiga kiritgan. Har bir volostda veterinar shifokor tekshirish ishlarini tugatgandan so'ng, aktlar alohida varaq ilova tarzida hisobotga qo'shilgan. Bunday ilovalar viloyat veterinariya boshqarmasiga topshirilgan [1. 4-varaq].

Agar hududlarda chorva kasalligi aniqlansa, veterinar shifokor quyidagi harakatlarni amalga oshirgan. Jumladan, chorva mollarida uchragan har bir kasallik bo'yicha bayonnoma tuzgan va ilova tarzida hisobotga kiritgan. Shu bilan birgalikda, veterinar shifokor ushbu kasalliklarga qarshi qanday choralar ko'rganligini bayon qilishi lozim bo'lgan. Shu sababli, u ko'rgan chora-tadbirlar to'g'risida bayonnoma tuzgan [1. 5-varaq].

Xizmat safariga yuborilgan ko'pgina shifokorlar mahalliy aholi tillarni bilmagan. Shu sababli, o'sha hududdan tarjimon yollash huquqiga ega bo'lgan. Mazkur tarjimonlarga veterinariya boshqarmasi oyiga 3 so'm miqdorida oylik bergan, veterinar shifokorning vazifalaridan biri o'zi yo'llagan tarjimon bilan mehnat shartnomasi tuzish

lozim bo‘lgan. Ushbu mehnat shartnomasida tarjimonning ismi sharifi va oylik miqdori ko‘rsatilgan.

Veterinar shifokorlar o‘rgangan hududlardagi chorva holatini ro‘yhatga olishi lozim bo‘lgan. Bundan tashqari, Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori buyrig g‘iga asosan, veterinar shifokorlar mahalliy hokimiyat organlaridan yuridik yordam so‘rashga haqqi bo‘lgan.

Umuman olganda veterinar shifokorlar hududlarni o‘rganish davomida o‘zlari bilan quyidagi hujjatlarni olib yurishi majburiy bo‘lgan. 1) chorva vabosi bo‘yicha majburiy nizom; 2) chorva mollari epizootiyasini (hayvonlarda biror yuqumli kasallikning tarqalishi) to‘xtatish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qoidalar; 3) chorva mollarida vabo kasalligini to‘xtatish bo‘yicha veterinariya-politsiya choralari to‘g‘risidagi bayonnoma shakli; 4) haftalik va hududdagi chorva mollarining umumiy hisobotlari; 5) chorva mollari vabo kasalligiga chalinganda kasallikka qarshi komissiyalar tuzish va uning yopish to‘g‘risida dalolatnoma shakllari; 6) volostlarni o‘rganish natijalari bo‘yicha xulosalar; 7) hududlarda chorvani ro‘yxatga olish varaqasi; 9) termometr. Ushbu hujjatlar va asboblari veterinar shifokorlar safarda nimalar bilan shug‘ullanishini yaqqolroq ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, veterinar shifokorlar mustamlaka ma‘muriyati tomonidan ko‘rsatmalar berilgan va mutahassislar ushbu yoriqnoma asosida faoliyat olib borgan. Demak, veterinar shifokorlar hududlarda chorva kasalliklari aniqlansa mahsus komissiya tuzish huquqiga ega bo‘lgan [1. 5-varaq orqasi].

Veterinar shifokorlar so‘ragan asboblari har doim ham ularga vaqtida yuborilmagan. Masalan, Zadgehba ismli veterinar shifokor 1908-yil Farg‘ona viloyatida bir qancha veterinar kuzatishlar olib boradi. 1908-yil 24-iyunda uning qo‘lida faqatgina 10 dona ishlaydigan termometr borligini ma‘lum qiladi, biroq u mazkur termometrlar ish faoliyatini olib borishga yetarli bo‘lmaganini ta‘kidlaydi. Zadgehba Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasidan qo‘shimcha termometrlarni yuborishni so‘raydi, ammo, 1908-yil noyabr oyiga kelibgina Farg‘ona viloyat veterinariya boshqarmasi unga 10 ta termometr asboblari yuborgan[3. 1-varaq].

Arxiv manbalari shuni ko‘rsatadiki, veterinar shifokorlar nafaqat asboblari balki, yozuv-chizuv uchun kerakli bo‘ladigan qog‘ozlar ham so‘ragan. Xususan, 1908-yil eski Marg‘ulon shahrida K. Litvilov veterinar feldsher bo‘lib ishlagan, u 1908-yil 28-noyabrda Skobelov shahridagi veterinariya punkitida qora mollar haroratini o‘lchash uchun 10 ta termometr, qushxonalarda nobud bo‘lgan qoramollar va mayda tuyoqli chorva mollari haqida habar berish blankasi, yozuv qog‘ozlari, siyoh, bir quti pat hamda 1dona qalam so‘ragan [3. 12-varaq].

Farg‘ona viloyat veterinariya boshqarmasi mahalliy aholidan qoramollarni ko‘rikdan o‘tkazganligi uchun ma‘lum bir miqdorda pul yig‘imi olgan. Ushbu masala bo‘yicha ham Turkiston general-gubernatorligiga va ma‘lumot berib turilgan. Masalan, bunday ma‘lumotlar Skobelov, Qo‘qon, Andijon, O‘sh va Namangan veterinariya punktlari tomonidan taqdim etilgan [4. 1-variant].

Arxiv manbalariga ko‘ra, veterinar shifokor Sutulovga 1909-yil 26-iyuldan boshlab o‘ziga Abduraxmon Husanov tarjimon sifatida yollaydi. Sutulov Abduraxmon Husanovga 3 so‘m oylik maosh bergan [1. 10-variant]. Keyinchalik veterinar shifokor Sutulov Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasiga o‘zining harajatlari va tarjimonga pul to‘lash uchun ma‘lum bir miqdorda pul yuborishini so‘raydi, bunga javoban veterinariya boshqarmasi Skobelev G‘aznachiligi orqali unga 15 so‘m pul yuboradi. Sutulov ushbu puldan tarjimonga oylik to‘laydi va qolganini xizmat harajatlari uchun harajat qiladi [1. 14-variant orqasi].

1910-yil 28-yanvarda Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasi veterinar shifokor Sutulovni Qo‘qon uezdida ham veterinariya kuzatish ishlarini olib borishni taklif qiladi. Sutulovgacha Qo‘qon uezdida Landman va Nikol ismli shifokorlar faoliyat olib borgan. Ushbu veterinar shifokorlar 17 betli Qo‘qondagi veterinariya holati bo‘yicha hisobot yozgan. Biroq, ushbu ikki veterinar shifokorlar Qo‘qon uyezdining barcha volostlarini tekshirishga ulgurmagan. Shu sababli, Qo‘qon uyezdi boshlig‘i Farg‘ona viloyat veterinariya boshqarmasidan veterinar shifokor so‘ragan edi [1. 17-variant].


Xulosa. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mustamlaka ma‘muriyati aholiga veterinariya bilimlarini yoyishga harakat qilgan. Buning uchun uezd va volostlarda tadbirlar uyishtirgan. Bir qancha mustamlaka muassasalari aholi o‘rtasida veterinariya va chorvachilik bo‘yicha bilimlarni ommalashtirish vazifasini olgan. Bunday muassasalarga Turkiston o‘lkasidagi “Yer va Davlat mulki boshqarmasi” hamda veterinariya boshqarmasi kirgan. Ushbu tashkilotlar joylarda o‘ziga yuklatilgan vazifani bajarish uchun ko‘rgazmali o‘qishlar, ommaviy ma‘ruzalar va kurslar tashkil etgan. Bundan tashqari, mustamlaka ma‘muriyati sohaga oid ommabob risolalar nashr etish orqali aholi orasida veterinariya va chorvachilikka oid bilimlarni ommalashtirishga harakat qilgan [2. 40-variant]. Mustamlaka ma‘muriyati bularni veterinar shifokorlar orqali amalga oshirishga harakat qilgan bo‘lib, bu har doim ham ijobiy natija bermagan. Bunga qator sabablarni ko‘rsatish mumkin;

- 1) kasal hayvonlar soniga nisbatan veterinar shifokor va veterinar feldsherlarning kamligi.
- 2) hayvonlarni davolash uchun asbob-uskunalarining yetishmasligi.
- 3) veterinar shifokorlarning mahalliy aholi tilini bilmasligi.

4) moddiy qiyinchiliklar, ya`ni, veterinar shifokor va veterinar feldsherlarning maoshi kamligi, turar-joy muammolari kabilardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro`yxat, 1-ish. 3-17-varaq.
2. O`zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro`yxat, 14-ish. 40-varaq.
3. O`zbekiston Milliy Arxivi, I-215-fond, 1-ro`yxat, 3-ish. 1-12-varaq.
4. Xo`jaxonov I. Farg`ona vodiysi chorvador aholisining an`anaviy uy-joylari xususida // Ta`lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2005. - №2.



**UNIVERSITY
OF BUSINESS
AND SCIENCE**